

DEVIANT XULQLI BOLALAR BILAN ISHLASH USULLAR VA ULARNING OLDINI OLISH CHORALARI

Salimboyeva Farangiz

Guliston davlat universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasи

“Ijtimoiy ish” yo’nalishi 2-kurs

Annotatsiya. Bu maqola deviant xulqli bolalar bilan ishlash usullari va ularning oldini olish choralari haqida bat afsil ma’lumot beradi. Maqolada deviant xulq-atvorning sabablari, uning rivojlanish omillari va jamiyatdagi ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada quyidagi asosiy mavzular yoritilgan: Deviant xulq-atvor tushunchasi, deviantlikning mohiyati va uning bolalar o’rtasida qanday namoyon bo’lishi. Deviant xulqli bolalar bilan ishlashda psixologik va ijtimoiy yordam ko’rsatish usullari. Bolalarni deviant xulq-atvordan qutqarish va uning oldini olish choralari. Maxsus ta’lim dasturlari va tarbiya usullari orqali bolalarning ijtimoiy me’yorlarga moslashishiga yordam berish. Maqolaning asosiy maqsadi - deviant xulqli bolalar bilan ishlashda samarali usullarni aniqlash va ularning jamiyatga moslashuvini ta’minlashdir.

Tayanch iboralar. Deviant xulq-atvor, profilaktika choralari, jinoyatchilikning oldini olish, madaniyat va xulq-atvor, psixologik yondashuvlar, ijtimoiy ish usullari.

Абстрактный. В данной статье представлена подробная информация о методах работы с детьми с девиантным поведением и мерах их профилактики. В статье анализируются причины девиантного поведения, факторы его развития и влияние на общество. Также в статье затронуты следующие основные темы: понятие девиантного поведения, природа девиантности и как она проявляется у детей. Методы оказания психологической и социальной поддержки в работе с девиантными детьми. Меры по избавлению детей от девиантного поведения и его профилактике. Помощь детям в адаптации к социальным нормам с помощью специальных образовательных программ и методов обучения. Основная цель статьи – выявить эффективные методы работы с детьми с девиантным поведением и обеспечить их адаптацию в обществе.

Основные фразы. Девиантное поведение, меры профилактики, профилактика преступности, культура и поведение, психологические подходы, методы социальной работы.

Abstract. This article provides detailed information on the methods of working with children with deviant behavior and measures to prevent them. The article analyzes the causes of deviant behavior, its development factors and impact on society. The article also covers the following main topics: The concept of deviant behavior, the essence of deviance and how it manifests itself among children. Methods of providing

psychological and social assistance in working with children with deviant behavior. Measures to save children from deviant behavior and prevent it. Helping children adapt to social norms through special educational programs and upbringing methods. The main goal of the article is to identify effective methods for working with children with deviant behavior and ensure their adaptation to society.

Key phrases Deviant behavior, preventive measures, crime prevention, culture and behavior, psychological approaches, social work methods.

Kirish. Deviant xulq-atvor - jamiyatda o'rnatilgan axloqiy va ijtimoiy me'yorlarga zid bo'lgan harakatlar yoki xatti-harakatlar sifatida tushuniladi. Bu tushuncha ko'pincha salbiy ma'noda ishlatiladi va jinoyatchilik, giyohvandlik, ichkilikbozlik, yolg'onchilik kabi holatlarni o'z ichiga oladi. Deviantlikning mohiyati shundaki, bu xatti-harakatlar jamiyatda qabul qilingan normalarga mos kelmaydi va ko'pincha ijtimoiy sanktsiyalarga olib keladi. Deviant xulq-atvorning sabablari turlicha bo'lishi mumkin, jumladan, oilaviy muammolar, ijtimoiy muhit, psixologik omillar va boshqalar. Bolalar o'rtasida deviant xulq-atvor turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, tajovuzkorlik, o'g'rilik, yolg'onchilik, mактабдан qochish, giyohvandlik va boshqalar. Bu holatlar ko'pincha bolalarning o'zlarini jamiyatdan ajratib qo'yishlari, o'z joniga qasd qilishga moyilliklari bilan ham kuzatiladi.

Deviant xulq-atvorni oldini olish va tuzatish uchun ijtimoiy-psixologik yondashuvlar qo'llaniladi. Bu yondashuvlar bolalarning ijtimoiy muhitini yaxshilash, oilaviy munosabatlarni mustahkamlash, psixologik yordam ko'rsatish va ta'lim-tarbiya jarayonlarini takomillashtirishni o'z ichiga oladi. Deviant xulqli bolalar bilan ishlashda psixologik va ijtimoiy yordam ko'rsatishning bir necha samarali usullari mavjud. Bu usullar bolalarning ijtimoiy moslashuvini yaxshilash, ularning xulq-atvorni tuzatish va ijtimoiy me'yorlarga moslashishiga yordam beradi.

Psixologik yordam usullari: Bolalar bilan individual ravishda ishlash orqali ularning ichki muammolarini aniqlash va hal qilishga yordam beradi¹. Bu usul bolalarning o'z-o'zini anglashini va o'z xatti-harakatlarini boshqarishni o'rganishiga yordam beradi.

Guruh terapiyasi: Bolalar guruhida o'tkaziladigan terapiya seanslari orqali ularning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish va o'zaro munosabatlarni yaxshilashga yordam beradi.

Oilaviy terapiya: Bolaning oilasi bilan birgalikda ishlash orqali oilaviy munosabatlarni yaxshilash va bolaga ko'rsatiladigan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish mumkin.

¹ Abdullayeva, N. A. (2016). Bolalar psixologiyasi. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.

Kognitiv-behavioral terapiya (KBT): Bu usul bolalarning salbiy fikrlash va xulq-atvorini o’zgartirishga qaratilgan bo’lib, ularni ijobiy fikrlash va xulq-atvorni rivojlantirishga yordam beradi.

Ijtimoiy yordam usullari: Maktab va jamiyat dasturlari: Bolalarni ijtimoiy faoliyatlarga jalb qilish orqali ularning ijtimoiy ko’nikmalarini rivojlantirish va jamiyatga moslashishiga yordam beradi.

Mentorlik va qo’llab-quvvatlash guruhlari: Bolalarga ijtimoiy qo’llab-quvvatlash ko’rsatish uchun mentorlar va qo’llab-quvvatlash guruhlari tashkil etish.

Sport va san’at dasturlari: Bolalarni sport va san’at faoliyatlariga jalb qilish orqali ularning ijtimoiy ko’nikmalarini rivojlantirish va o’z-o’zini ifoda etish imkoniyatlarini yaratish.

Ta’lim va tarbiya dasturlari: Bolalarga ijtimoiy me’yorlar va qoidalarni o’rgatish uchun maxsus ta’lim va tarbiya dasturlarini tashkil etish². Bu usullar bolalarning ijtimoiy moslashuvini yaxshilash va ularning deviant xulq-atvorini tuzatishga yordam beradi.

Bolalarni deviant xulq-atvordan qutqarish va uning oldini olish choralar ko‘plab ijtimoiy, pedagogik va psixologik omillarni hisobga olishni talab qiladi. Bolalarni deviant xulq-atvordan qutqarish va oldini olish uchun bir nechta muhim choralar ko’rish mumkin³.

1. Sog‘lom oilaviy muhitni yaratish zarur. Oila bolalar uchun eng asosiy ta’sir o’tkazuvchi muhitdir. Oila a’zolari o‘zaro hurmat, muhabbat, muloqot va mas’uliyatni targ‘ib etishi kerak. Ota-onalar bolalarga ma’naviy va axloqiy qadriyatlarni, to’g’ri xulq-atvorni o’rgatishlari kerak. Bolalar harakatlarini kuzatib, ularning to’g’ri yo’ldan chiqib ketmasligini ta’minklash lozim. Bundan tashqari, oilaviy masalalarda yordam berish hamda oila ichidagi muammolarni hal qilishda psixologik yordam va maslahatlar taqdim etish, oila a’zolariga tarbiyaviy maslahatlar berish.

2. Yoshlarni to’g’ri tarbiyalash va tarbiyaviy dasturlar, guruh ishlari, va ijtimoiy faoliyatlar orqali bolalarni ijtimoiy mas’uliyatga o’rgatish. Maktab va o’qituvchilar bolalarga nafaqat fanlarni, balki ijtimoiy ko’nikmalarni ham o’rgatishi kerak. Bolalar o’z harakatlarining natijalarini tushunib, to’g’ri va noto’g’ri xulq-atvorni farqlashni o’rganishlari kerak.

3. Bolalarga psixologik yordam ko’rsatish muhim. Agar bola o’zini yomon his qilsa yoki xulq-atvori o’zgarayotganini sezsa, psixolog yoki maslahatchi bilan maslahatlashish lozim⁴. Bolalar va o’smirlar uchun psixologik yordam ko’rsatish, ularni stress, depressiya yoki boshqa emotsiyonal muammolardan himoya qilish

² Ergashev, O. E. (2019). Yosh psixologiyasi. Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti.

³ Kazimzhanova, E. (2022). “Oiladagi ijtimoiy muhitning deviant xulqga ta’siri”. Pedagogika va psixologiya tadqiqotlari jurnali, 4(1), 25-32.

⁴ Axunova, G. R. (2021). “Deviant xulqli bolalar psixologik diagnostikasi”. Psixologiya jurnali, 3(2), 45-52.

zarurligini anglagan holda ularga yordam berish. Ularni erta aniqlash va zarur chora-tadbirlarni ko‘rish, masalan, o‘qituvchilar va psixologlar tomonidan individual maslahatlar berish.

4. Bolalarni sport yoki boshqa jismoniy faoliyatlarga jalb qilish orqali ularning energiyasini sog'lom yo'llar bilan chiqarish mumkin. Bolalarni san'at, musiqa, rasm chizish kabi ijodiy faoliyatlarga jalb qilish ham ularning ijobiy rivojlanishiga yordam beradi.

5. Bolalarni yaxshi do'stlar va sog'lom muhit bilan ta'minlash lozim. Bu ularning to'g'ri xulq-atvorni qabul qilishiga yordam beradi. Yopiq yoki ijtimoiy jihatdan xavfli muhitlardan bolalarni himoya qilish, masalan, jinoyatchilik va noxush muhitlardan uzoqroq joylarda yashashni ta'minlash.

6. Bolalar huquqlarini himoya qilish. Yuridik xizmatlar va qonunlarga asoslangan tizimni yaratish, bolalar huquqlarining buzilishi va ijtimoiy xavfli xulq-atvorlarga qarshi kurashish. Bu kabi tadbirlar yordamida bolalarning jinoyatga qo'l urishini oldini olish⁵.

Bu chora-tadbirlar bolalar o‘rtasidagi deviant xulq-atvorni kamaytirish va oldini olishda samarali yordam beradi. Ijtimoiy, oilaviy va psixologik muhitni yaxshilash orqali bolalar sog'lom va to'g'ri rivojlanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Maxsus ta'lim dasturlari va tarbiya usullari bolalarning ijtimoiy me'yorlarga moslashishiga yordam berishda muhim ahamiyatga ega. Bunday dasturlar va usullar, asosan, bolalarning o‘zini tutish, muloqot qilish, jamiyatda o‘z o‘rnini topish va ijtimoiy qabul qilishni osonlashtiradi. Quyidagi yondoshuvlar va usullar yordamida bolalarga ijtimoiy me'yorlarga moslashishga yordam berish mumkin. Har bir bolaning ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olgan holda, unga moslashtirilgan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish. Masalan, turli psixologik yoki fiziki qiyinchiliklarga ega bolalar uchun moslashtirilgan materiallar, o‘qish va ta'lim metodikalari qo'llanishi lozim. Muloqot qilish, guruhda ishlash, hissiy intellektni rivojlanirishga oid mashg‘ulotlar. Bolalarga ijtimoiy qoidalarga amal qilish, to'g'ri xulq-atvorni namoyish etish va to'g'ri qarorlar qabul qilishni o‘rgatadigan treninglar va darslar shular jumlasidandir. So‘zimizning mantiqiy davomi sifatida esa yaxshi xulq-atvorni rag‘batlantirish, bolalarni ijtimoiy me'yorlarga mos xulq-atvorga undashda samarali bo‘lishi mumkin. Masalan, ijobiy xulq-atvorni tan olish va mukofotlash, bolaning o‘zini hurmat qilishi va jamiyatda faol ishtirok etishiga yordam beradi. Qiyin vaziyatlar bilan ishlashni o‘rgatish. Bolalarni muammoli vaziyatlarda yordam berish va ular bilan muloqot qilish. Bu usul, xususan, o‘zini tutishdagi qiyinchiliklarga duch kelgan bolalar uchun muhimdir. Masalan, sinfda nizolarni hal qilish, boshqa bolalar bilan muloqotda bo‘lishda qo'llaniladigan ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘rgatish. Ochiq muloqotni shakillantirish. Bolalarni o‘z his-tuyg‘ulari

⁵ <https://cyberleninka.ru/article/n/o-smirlar-deviant-xulq-atvorining-profilaktikasi>

haqida gapirishga, fikr va mulohazalarini ochiq bildirishga rag‘batlantirish. Bu, ayniqsa, o‘zini ifoda etishda qiyinchiliklarga duch kelayotgan bolalar uchun foydalidir. Maxsus ta’lim dasturlari va tarbiya usullari bolalarni ijtimoiy me’yorlarga moslashish uchun zarur ko‘nikmalar bilan ta’minlaydi⁶. Bu jarayon ijtimoiy, psixologik va pedagogik yondoshuvlarni o‘z ichiga olib, bolalarning sog‘lom rivojlanishiga va jamiyatda muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashishlariga yordam beradi. Tarbiyaviy yondoshuvlar, o‘zaro hurmat va psixologik qo‘llab-quvvatlash bolalarga ijtimoiy qoidalarga muvofiq ravishda xulq-atvorni shakllantirishga yordam beradi.

Xulosa. “Deviant xulqli bolalar bilan ishlash usullari va ularning oldini olish choralar” mavzusida zamonaviy jamiyatda yoshlar orasida uchrayotgan deviant xatti-harakatlarning sabablari, ularning rivojlanish omillari hamda ushbu muammoning oldini olish bo‘yicha samarali usullar ishlab chiqish hamda deviant xulqli bolalar bilan ishlashda individual yondashuv, pedagogik va psixologik usullardan unumli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalar tarbiyasida oilaning roli, atrof-muhitning ta’siri, ta’lim-tarbiya muassasalarining faoliyati alohida o‘rin tutadi. Bu tizimlar birgalikda hamkorlikka asoslangan holatda ishlashi zarur. Shu bilan birga, profilaktika tadbirdari sifatida bolalarning qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash, ularga mehr va e’tibor ko‘rsatish, ijtimoiy moslashuvchanlikni rivojlantirish bo‘yicha takliflar ilgari surildi. Maqola yakunida, deviant xulqning oldini olish va bunday bolalar bilan ishlashda jamoatchilik, ota-onalar va mutaxassislar birgalikda faoliyat olib borishi zarurligi qayd etilib, har tomonlama qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish orqali ijobiy natijalarga erishish mumkinligi ta’kidlab o‘tish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva, N. A. (2016). Bolalar psixologiyasi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
2. Ergashev, O. E. (2019). Yosh psixologiyasi. Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti.
3. Kazimzhanova, E. (2022). “Oiladagi ijtimoiy muhitning deviant xulqga ta’siri”. Pedagogika va psixologiya tadqiqotlari jurnali, 4(1), 25-32.
4. Axunova, G. R. (2021). “Deviant xulqli bolalar psixologik diagnostikasi”. Psixologiya jurnali, 3(2), 45-52.
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-smirlar-deviant-xulq-atvorining-profilaktikasi>
6. <https://oefen.uz/uz/documents/referatlar/umumiyy/deviant-xulq-atvorning-kelib-chiqish-sabablari>

⁶ <https://oefen.uz/uz/documents/referatlar/umumiyy/deviant-xulq-atvorning-kelib-chiqish-sabablari>